

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/29.12. 2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**MASHARIPOV IKRAMJON BATIROVICH**

**FUQAROLIK JAMIYATINING IJTIMOYIY-SIYOSIY ASOSLARINI  
RIVOJLANTIRISH**

**23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar**

**Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT - 2024**

**Siyosiy fanlar doktori (DSc)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора наук (DSc) по политическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract  
of the Doctor on Political Sciences (DSc)**

**Masharipov Ikramjon Batirovich**

Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy asoslarini rivojlantirish  
.....3

**Машарипов Икрамжон Батирович**

Развитие социально-политических основ гражданского общества  
.....25

**Masharipov Ikramjon Batirovich**

Development of socio-political foundations of civil society  
.....48

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....51

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/29.12. 2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**MASHARIPOV IKRAMJON BATIROVICH**

**FUQAROLIK JAMIYATINING IJTIMOIIY-SIYOSIY ASOSLARINI  
RIVOJLANTIRISH**

**23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar**

**Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2018.4.DSc/Siyos24 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://www.tsuos.uz>) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy mashhatchi:**

**Qirg‘izboyev Muqimjon**  
siyosiy fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Jo‘rayev Sayfiddin Axmatovich**  
siyosiy fanlar doktori, professor

**Jo‘raqulov Furqat Noryigitovich**  
siyosiy fanlar doktori, professor

**Mirzaaxmedov Kamoliddin Mansur o‘g‘li**  
siyosiy fanlar doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSs.03/29.12.2022.Ss.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: [sharq\\_ilmiy@mail.ru](mailto:sharq_ilmiy@mail.ru))

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel.: (71) 233-45-21;

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi.)

**D. B. Sayfullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
tarix fanlari doktori, professor

**D.I.Madaminova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, siyosiy fanlar doktori, dotsent

**E. S. Sultanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar  
doktori, professor

## KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tajribasida so‘nggi yillarda fuqarolik jamiyatining konstitutsiyaviy-huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, informatsion-kommunikativ asoslarini shakllantirishda inson erkinligi va huquqini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, “milliy va umumbashariy muammolarni hal qilishda fuqarolik jamiyatining keng ishtirokini ta‘minlash, uning institutsional, funksional va strategik yo‘nalishdagi ahamiyatini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda.”<sup>1</sup> Fuqarolik jamiyati qurishning muhim sharti – aholining siyosiy ijtimoiylashuvi hamda ijtimoiy pragmatizmning kuchayishi sharoitida shakllanayotgan yangi – nodavlat notijorat tashkilotlari (ingl. Nongovernmental organizations - NGOs) kabi tarmoqlarning fuqarolik jamiyati institutlari tizimdagi o‘rnini aniqlash, demokratik siyosiy jarayonning muhim elementi – partiyalararo raqobatning tizimli-institutsional hamda tashkiliy-texnologik yo‘nalishlarini amaliyotga joriy etish muammosi o‘z yechimini kutayotgan dolzarb masalaga aylanmoqda.

Jahonda globallashuv sharoitida fuqarolik jamiyati institutlarini taraqqiy ettirishga doir olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda huquqiy sohalarida ularning sotsium taraqqiyotidagi o‘rniga qaratilgan siyosiy tahlillariga alohida e‘tibor berilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy-siyosiy rivojlanish jarayonlari, shuningdek, sotsial modernizatsiya va iqtisodiy diversifikatsiya tendensiyalaridagi ishtiroki ochib berilgan bo‘lsa-da, turli inqirozli vaziyatlarning oldini olish, demokratik parlament va ijroiya hokimiyatini shakllantirishda saylovlarning o‘rni oshib borayotganligi sababli ularning transformatsiyalashuvi jarayonida siyosiy partiyalarning “g‘oyaviy inkubatorlar” rolidan samarali foydalanish, parlament va partiyaviy nazorat funksiyalarining huquqiy jihatlarini takomillashtirish, globallashuv tahdidlarini bartaraf etish hamda ma‘naviy-mafkuraviy taraqqiyotga qo‘shayotgan hissasini ilmiy baholashga qaratilgan masalalar yetarlicha tadqiq etilmagan.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish jarayonlarini huquqiy jihatdan ta‘minlashda davlat xizmatlarining sifatini oshirish, o‘z faoliyati yuzasidan jamoatchilikka tizimli ravishda ma‘lumotlar taqdim etish masalalarida adliya organlari va muassasalarining roli va mas‘uliyati sezilarli ravishda oshmoqda. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish va intellektual mulkning huquqiy himoyasi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda tizim imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ushbu sohalarida muvofiqlashgan faoliyatni ta‘minlash hamda mavjud ma‘muriy tuzilmalarning yaxlit vertikal boshqaruvini shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak”<sup>2</sup> g‘oyasi fuqarolik jamiyati qurishning asosiy tamoyiliga aylangan. Fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish tendensiyalari Yangi O‘zbekiston po‘ydevorini shakllantirish jarayonlariga uzviy hamohang ravishda

---

<sup>1</sup>Honoring Lester Salamon at the 2022 ISTR ConferenceCentre research civil society of University name Johns Hopkins (AKIII). <https://ccss.jhu.edu>.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: “O‘qituvchi” nashriёти, 2021. –Б. 27.

kechmoqda. Bunda mamlakatimiz oldida turgan strategik vazifalar – xalqchil davlat, erkin fuqarolik jamiyati va demokratik qadriyatlarni mustahkamlash kabi omillarni qamrab olgan kompleks va fundamental tadqiqotlarni olib borish ilmiy jamoatchilik oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-fevraldagi PF-4944-son “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2018-yil 4-maydagi PF-5430-son “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasito‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son farmonlari hamda mazkur sohaga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>3</sup>. Jahon hamjamiyatida fuqarolik jamiyatining turli ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini tahlil qilishga qaratilgan bir qancha ilmiy markazlar faoliyat yuritmoqda. Ular jumlasiga: Centre research civil society of University name Johns Hopkins (AQSH), Progressive Policy Institute (AQSH), Brookings Institution (AQSH), Princeton University (AQSH), Stanford University, Center for the study of Democracy of the University of California, Ohio State University, Columbia University (AQSH), Institute of Contemporary Arts ((Buyuk Britaniya), University of Cambridge (Buyuk Britaniya), Asian Strategy and Leadership Institute (Malayziya), Civil Society Fund Friedrich Ebert, Berlin Civil Society Center (Germaniya), School for Advanced Studies in the Social Sciences in Paris (Fransiya), Institut d’études politiques de Paris (Fransiya), The European University Institute (Italiya), University of Palermo, Center on Social Movement Studies (Italiya), Institute of Asademy for study modern international relations Europe and Asia (Xitoy), The China Research Center (Xitoy), Tsinghua University (Xitoy), Centre for Civil Society (Hindiston), Osaka University (Yaponiya), The national institute for

---

<sup>3</sup>Диссертация мавзуси бўйича халқаро илмий-тадқиқотлар шарҳи: [www.nyu.edu](http://www.nyu.edu), [www.wisc.edu](http://www.wisc.edu), [www.democracy.uci.edu](http://www.democracy.uci.edu), [www.osu.edu](http://www.osu.edu), [www.unipa.it](http://www.unipa.it), [www.columbia.edu](http://www.columbia.edu), [www.unipage.net](http://www.unipage.net), [www.socialresearch.no](http://www.socialresearch.no), [www.ccs.in](http://www.ccs.in); [www.igh.ru](http://www.igh.ru); [www.iphras.ru](http://www.iphras.ru); [www.igpran.ru](http://www.igpran.ru); [www.civilfund.ru](http://www.civilfund.ru); [www.eprcstrath.eu/](http://www.eprcstrath.eu/); [www.riss.ru](http://www.riss.ru). <https://ru.dugin.ru>, [www.useoul.edu](http://www.useoul.edu), [www.uni-freiburg.de](http://www.uni-freiburg.de); [www.csis.org](http://www.csis.org); [www.ips.org/en/](http://www.ips.org/en/); [riss.ru](http://riss.ru); [www.chinacenter.net](http://www.chinacenter.net); [www.kisi.kz](http://www.kisi.kz); [uzstrateg.info](http://uzstrateg.info); [www.ifs.uni-frankfurt.de](http://www.ifs.uni-frankfurt.de).

research Advancement (Yaponiya), Seoul of National University (Janubiy Koreya), Siyosiy tadqiqotlar instituti, Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash fondi (Rossiya), Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi (O'zbekiston) kabi ilmiy muassasalar kiradi.

Zamonaviy siyosiy jarayonlarda turli NNT, siyosiy partiya va harakatlarning tom ma'nodagi fuqarolik jamiyati qurilishidagi o'rni borasidagi tadqiqotlar natijasida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: fuqarolik jamiyati inson huquq va erkinliklarining ishonchli kafolatlari, demokratik tizimda amaliy-funksional asoslari strategik rejalashtirish fenomeni orqali ochib berilgan (Center for the study of Democracy of the University of California, AQSH); fuqarolik jamiyatining davlat instituti bilan o'zaro munosabatlarda konfrontatsiyalaridan tortib, pragmatik sheriklikka bo'lgan turli strategiyalardan foydalanish taklif etilgan (School for Advanced Studies in the Social Sciences in Paris, Fransiya); siyosiy partiyalarning saylovlarda faol ishtirok etishi tendensiyalari, saylovlarni xalqaro tashkilotlar tomonidan nazorat qilish hamda ularni xalqaro me'yoriy hujjatlar va milliy qonunchilik asosida faoliyat olib borishining hududiy va markaziy faoliyat yo'nalishlari asoslangan (Centre research civil society of University name Johns Hopkins, AQSH); demokratik parlament va ijroiya hokimiyatini shakllantirishda saylovlarning o'rni oshib borayotganligi sababli ularning transformatsiyalashuvi jarayonida siyosiy partiyalarning "g'oyaviy inkubatorlar" rolidan samarali foydalanish, parlament va partiyaviy nazorat funksiyalarining huquqiy jihatlarini mustahkamlash masalalari ochib berilgan (Centre for Civil Society, Hindiston).

Jahonda fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy asoslarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, fuqarolik jamiyatining asosi sifatida turli nodavlat notijorat tashkilotlari va siyosiy partiyalarning me'yoriy-huquqiy va g'oyaviy-ma'naviy asoslarini takomillashtirish; fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash, davlat, biznes tizim va nodavlat tashkilotlar o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish; ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari va siyosiy partiyalarning davlat boshqaruv elitasini rekrutatsiya qilish funksiyalarining tashkiliy-huquqiy jihatlarini takomillashtirish; davlatning markaziy va mahalliy boshqaruv tizimida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirishni takomillashtirish; fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga oid xalqaro va milliy ko'rsatkichlar (indekslar)ni ishlab chiqish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dissertatsiyada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bevosita tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi hamda fuqarolik jamiyati mazmuni va mohiyatiga yangi davr talabi asosida yondashilgan konseptual g'oyalari, nutqlari va asarlari<sup>4</sup> muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki o'n yilliklarida fuqarolik jamiyati qurish keng ravishda o'rganila boshladi. Mavzuga oid

---

<sup>4</sup> Dissertatsiyada ushbu mualliflarning tadqiqotlaridan unumli foydalanilgan.

tadqiqotlarni, shartli ravishda, uch guruhga: o‘zbekistonlik olimlar, MDH olimlari va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlariga ajratish mumkin.

*Birinchi guruhga* quyidagi mahalliy olimlarimiz tomonidan amalga oshirilgan O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishga doir tadqiqotlar kiradi: M.Qirg‘izboyev, S.Jo‘rayev, I.Ergashev, R.Jumayev, N.Jo‘rayev, Z.Islamov, Sh.Paxruddinov, A.Xolbekov, S.Otamuratov, A.Qodirov, M.Sharifxo‘jayev, M.Mullajonova, M.To‘raqulov, T.Matibayev, Sh.Nazarov, A.O‘tamurodov, Sh.Yakubov, A.Jalilov, U.Muhammadiyev, S.Norqulov, B.Omonov, J.Mavlonov, S.Saidov, K.Mirzaaxmedov<sup>5</sup> va boshqalar.

*Ikkinchi guruhdagi* tadqiqotlarda MDH olimlari tomonidan hozirgi davr fuqarolik jamiyati va uning institutlariga doir hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bog‘liq elementlar, mexanizmlar nuqtayi nazaridan yetarli nazariyalar ishlab chiqilgan. Xususan, S.Peregudov, P.Yankevich, A.Vorob‘yev, V.Shelomensev, V.Yakimes, N.Luman, G.Shamatonova, A.Vaxonin, D.Goncharov<sup>6</sup>larning ilmiy qarashlari bayon etilgan asarlar ularga misol bo‘ladi.

*Uchinchi guruhni* G‘arb davlatlari olimlarining ilmiy asarlarida fuqarolik jamiyati shakllanishini mulkdorlar ijtimoiy qatlamining vujudga kelishi bilan bog‘liqligiga oid nazariyalar ishlab chiqqan: M.Uorren, M.M.Xovard va J.Sartori, yangi davrda fuqarolik jamiyatini atroflicha tadqiq etgan: J.S.Mill hamda Djin L.Koen, Endryu Arato, Yurgen Xabermas, Filipp Shmitter, Mishel Fuko, Tolkott Parsons, Gabriel Almond, Reymon Aron, Pitirim Sorokin, Fridrix fon Xayek, Robert Patnem, Frensis Fukuyama, Robert Dal<sup>7</sup> kabi mashhur olimlarning fuqarolik jamiyatiga doir tadqiqotlari va asarlari tashkil etadi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda mustaqillakdan keyingi chorak asr mobaynida fuqarolik jamiyatining u yoki bu institutlari turli ijtimoiy-gumanitar fanlar nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Ammo jamiyatning asosiy institutlari fuqarolik jamiyatining negizida shakllanishi kompleks holda o‘rganilmadi. Ayniqsa, siyosiy fanlar nuqtayi nazaridan fuqarolik jamiyati qurishning ijtimoiy-siyosiy masalalari maxsus ilmiy tadqiqot obyekti sifatida to‘lig‘icha tadqiq etilmagan edi.

**Dissertatsiya mavzusining tadqiqot bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq belgilangan 7.1-“O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda davlat boshqaruvini demokratlashtirish muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy asoslarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

---

<sup>5</sup>Yuqorida keltirilgan olimlarining ilmiy ishlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

<sup>6</sup>Nomi zikr etilgan olimlarining ilmiy ishlari dissertatsiyaning kiritilgan;

<sup>7</sup> Qayd etilgan olimlarning asarlari” Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”ga kiritilgan.



### **Tadqiqotning vazifalari:**

siyosiy fanlarda fuqarolik jamiyati kategoriyasi bo'yicha dastlabki tushunchalar, ularning rivojlanish bosqichlari, bu boradagi ilmiy-nazariy tadqiqotlarni tizimlashtirish;

qadimgi davrdan yangi davrgacha bolgan fuqarolik jamiyatiga oid nazariy asoslarni ishlab chiqqan olimlarning asarlarini tahlil etish;

G'arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyatiga doir klassik nazariyalarni tahlil etish va ularni umumlashtirish;

zamonaviy fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan nazariyalar rivojlanishini tahlil etish;

siyosiy partiyalar va ularning fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlantirish masalalarini tadqiq etish;

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining fuqarolik jamiyatining boshlang'ich va tayanch instituti sifatidagi tavsiflarini ochib berish;

nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy-siyosiy rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish;

O'zbekistonda mustaqillikkacha bo'lgan va istiqlolning dastlabki davrida yangi jamiyatga o'tish masalalarini tadqiq etish;

mustaqillik davrida fuqarolik jamiyatini shakllantirish muammolari va ularning yechimlarini aniqlash;

jadal islohotlar jarayonida O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish masalalari va ular faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini aniqlash;

yetakchi olimlarning fuqarolik jamiyati hamda uning institutlarini rivojlantirishga oid tahlillari va tadqiqotlar natijalarini ochib berish;

mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish jarayonidagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni aniqlash va ularning yechimlariga doir xulosa, taklif va tavsiyalarni shakllantirishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekiston Respublikasida zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining mamlakat demokratik taraqqiyotida tutgan o'rni va roli tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati va uning institutlarining shakllanishi, bu jarayonda yuzaga kelgan muammolar, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish jarayonlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik, maqsadli-tizimlilik, funksional-tizimlilik, empirik kuzatuv, kontent-analiz, o'zaro aloqadorlik kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

fuqarolik jamiyati rivojining zamonaviy bosqichida xalq bilan muloqot tizimining "qayta aloqa" - fuqaro-davlat, mahalla-davlat, NNT-davlat, jamiyat-davlat mexanizmi orqali sifat va natijadorlikka erishishi barqaror jamiyatning sifat ko'rsatkichi ekanligi ochib berilgan;

fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarida o'z-o'zini boshqarish, jamoatchilik nazorati, milliy qadriyatlarga sodiqlik, manfaatlar uyg'unligini ta'minlash kabi yetakchi mexanizmlar asosidagi faoliyatining o'sish

nuqtasi sifatida belgilashi jamiyatda inson qadr-qimmatini yuksaltirish darajasiga xizmat qilishi ilmiy asoslab berilgan;

davlat organlari jamoatchilik kengashlari tarkibining kamida 50 foizini nodavlat notijorat tashkilotlari vakolatlariga o'tkazish orqali fuqarolik jamiyati institutlari vakolatini oshirish taklif etilgan;

fuqarolik jamiyati institutlariga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, ularni ekspertiza qilishda davlat va jamoat tashkilotlarining o'zaro ijtimoiy integratsiyalashuvida bipolyar (ikki qutbli) tizimga asoslanishi isbotlangan;

fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ijtimoiy taraqqiyotning asosini belgilovchi muhim omili mulkdorlar qatlami (o'rta sinf)ning huquqlari kafolatlarini ta'minlashning konkret va amaliy substansiya mexanizmlari taklif etilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

jamiyatdagi mavjud nodavlat notijorat tashkilotlari, o'zini o'zi boshqarish organlariga doir qonunlar loyihalarini ishlab chiqishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan;

nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini demokratik tamoyillar va milliy an'analar asosida isloh etishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

zamonaviy xorijiy va milliy tajribani tanqidiy jihatdan o'rganish asosida fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining siyosiy jarayonlardagi faolligi, ularning muvaffaqiyatli rivojlanishi, ularning davlat boshqaruv organlari bilan o'zaro manfaatli ijtimoiy hamkorligini tizimli rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot jarayonida maxsus sotsiologik so'rovnomalar o'tkazilgani, sohaga doir ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlardan foydalanilgani, zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yanada rivojlantirishga asoslangan konseptual va amaliy ahamiyatga ega xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda tadqiqot jarayonida olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* ulardan jamiyatni rivojlantirishda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish va ijroiya hokimiyati tizimini fuqarolik jamiyati talablari hamda shart-sharoitlariga muvofiqlashtirish va uning ijtimoiy-siyosiy asoslarini o'rganishning nazariy jihatlarini yanada boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning *amaliy ahamiyati* olingan ilmiy natijalar nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazlarida fuqarolik jamiyati institutlariga oid faoliyatda, oliy ta'lim muassasalarida "Siyosatshunoslik", "Sotsiologiya" va "Xalqaro munosabatlar" kabi fanlarni o'qitishda, ma'ruza matnlari hamda o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy asoslarini rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar, nazariy va amaliy xulosalar, tavsiya va ishlanmalar asosida:

fuqarolik jamiyati rivojining zamonaviy bosqichida xalq bilan muloqat tizimining “qayta aloqa” - fuqaro-davlat, mahalla-davlat, NNT-davlat, jamiyat-davlat mexanizmi orqali sifat va natijadorlikka erishishi barqaror jamiyatning sifat ko‘rsatkichi ekanligi ochib berilganligi bilan bog‘liq taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining saylovoldi kampaniyasini o‘tkazishga oid partiya Markaziy kengashi ish rejasidagi “Yo‘l xarita”sini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Markaziy kengashining 2024-yil 27-fevraldagi 02/05-17-sonli ma’lumotnomasi*). Natijada bu jamiyatda siyosiy partiyalar rolini oshirish uchun aralash turdagi saylov tizimiga o‘tishga doir hamda boshlang‘ich partiya tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta’minlash va ularning elektorat bilan ishlash tizimini shakllantirishga qaratilgan faoliyatini kuchaytirishga xizmat qilgan;

davlat organlari jamoatchilik kengashlari tarkibining kamida 50 foizini nodavlat notijorat tashkilotlari vakolatlariga o‘tkazish orqali fuqarolik jamiyati institutlari vakolatini oshirish taklifidan O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi faoliyatida foydalanilgan. (*O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasining 2024-yil 26-fevraldagi №BM-06/291-sonli ma’lumotnomasi*). Natijada bu ishlab chiqilgan ilmiy natijalarning amaliyotga joriy etilishi, fuqarolik jamiyati institutlari rolini oshirishni takomillashtirishda davlat boshqaruv organlari va nodavlat tashkilotlari o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy-siyosiy muvozanatni shakllantirish asoslarini rivojlantirishga xizmat qilgan;

fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarida o‘z-o‘zini boshqarish, jamoatchilik nazorati, milliy qadriyatlarga sodiqlik, manfaatlar uyg‘unligini ta’minlash kabi yetakchi mexanizmlar asosidagi faoliyatining o‘sish nuqtasi sifatida belgilashi jamiyatda inson qadr-qimmatini yuksaltirish darajasiga xizmat qilishi ilmiy asoslab berilgan taklif va tavsiyalar Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2022-2023-yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida tatbiq etilgan. (*Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024-yil 27-fevraldagi /01/11-222-sonli ma’lumotnomasi*). Natijada, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining II yo‘nalishida belgilanganidek, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi mazmun-mohiyati hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar targ‘iboti” ning 9-bandi “Yangi O‘zbekiston - xalqparvar davlat tamoyilini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan islohotlar mazmun-mohiyatini targ‘ib qilish borasidagi ustuvor vazifalar” mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etishda taklif, tavsiya va xulosalardan foydalanishga xizmat qilgan;

fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ijtimoiy taraqqiyotning asosini belgilovchi muhim omili mulkdorlar ijtimoiy qatlami (o‘rta sinf)ning huquqlari kafolatlarini ta’minlashning konkret va amaliy substansiya mexanizmlariga doir taklifi O‘zbekiston Milliy teleradio kompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” Davlat muassasasi “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan amaliyotga tatbiq etilgan. (*“O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi”ning 2024-yil 26-fevraldagi 04-36-288-sonli ma’lumotnomasi*). Natija O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” DM “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”,

”Millat va ma’naviyat”, ”O‘zbekiston yoshlari” nomli dasturlar ssenariylarini (2023-2024-yillar) tayyorlashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Tadqiqot natijalari jami 8 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 5 ta xalqaro hamda 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda bayon etilgan va aprotatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 35 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 26 ta maqola (ulardan, 11 tasi respublika darajasidagi, 15 tasi xorijiy jurnallarda) e’lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, jami 213 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad hamda vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Fuqarolik jamiyatiga oid nazariyalar evolyutsiyasi”** deb nomlangan. Uning birinchi paragrafida *“Fuqarolik jamiyatiga oid unsurlarni kashf etish jarayoni”* tahlil etiladi.

Fuqarolik jamiyati bir necha ming yillar davomida insoniyat tarixida yaratilgan insonlarning uyushib yashashga doir tajribalari hosilasi o‘laroq shakllandi. Fuqarolik jamiyatining shakllanishiga oid dastlabki nazariy qarashlarning vujudga kelishida Qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfutsiy (xitoycha: Kun-szi, er. avv. 551-479-yy.), mashhur yunon faylasuflari Platonning (er.avv. 427-347 yy.) va Aristotel kabilarning xizmati juda ham kattadir.

Ilk o‘rta asrlarda fuqarolik jamiyatining unsurlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan mutafakkir - vatandoshimiz Abu Nasr Forobiydir (873-950- yy.). U o‘rta asrlar muhiti sharoitlarida fozil jamiyatning tarixini – loyahasini yaratgan edi. Forobiyning quyidagi fikrlari bunga guvohlik beradi: “Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo‘ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-barobar bo‘ladi, har kim o‘zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma’nosi bilan ozod bo‘ladilar. Biri ikkinchisiga xo‘jayin bo‘lmaydi. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton (ya’ni, podshoh) bo‘lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo‘ladi”<sup>8</sup>. Mazkur fikrlardan ko‘rinib turibdiki, Forobiy tasvirlagan “madaniy jamiyat”ga tegishli xususiyatlar va belgilar – bevosita fuqarolik jamiyatining unsurlaridir.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida *“G‘arbiy Yevropada fuqarolik jamiyatiga doir klassik nazariyalarning shakllanishi va rivojlanishi”* ga oid tahlillar amalga oshirilgan.

<sup>8</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. -Т.: Янги аср авлоди, 2019. 190 б.

G'arbiy Yevropada fuqarolik jamiyati haqidagi dastlabki tasavvurlar XVI asrning o'rtalarida paydo bo'ldi. Dastlab, golland faylasuf olimlari G.Grosiy (1583-1645-yy.) va B.Spinoza (1632-1677-yy.), ingliz mutafakkiri J.Lokk (1632–1704-yy.), nemis faylasufi I.Kant (1724-1804-yy.), ingliz faylasufi T.Gobbs (1588-1679-yy.), fransuz mutafakkiri Sh.L.Monteskye (1689–1755-yy.), fransuz mutafakkir J.J.Russo (1712-1778-yy.) kabilar birinchilardan bo'lib fuqarolik jamiyatining unsurlari - erkinlik va individualizm g'oyalarini ishlab chiqdilar.

Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy va iqtisodiy asosi bo'lgan o'rta ijtimoiy qatlam - "uchinchi tabaqa"ning o'rniga oid nazariyalarni rivojlantirishda I.Bentamning (1748-1832-yy.) hissasi katta bo'ldi. U utilitarizm<sup>9</sup> nazariyasini yaratdi<sup>10</sup>. Ingliz liberalizmi asoschilaridan biri bo'lgan J.S.Mill (1806-1873-yy.), fransuz olimi B.Konstan (1767-1830-yy.), fransuz olimi A.Tokvil (1805-1859-yy) kabilar zamonaviy fuqarolik jamiyati konsepsiyalarini ishlab chiqdilar.

Birinchi bobning uchinchi paragrafida "*Zamonaviy fuqarolik jamiyati nazariyasining rivojlanishi*" ga doir masalalar tahlil etilgan. Hozirgi davr fuqarolik jamiyati nazariyasiga AQSH siyosatshunos olimi B.Barber, nemis olimi V.Detl, nemis faylasufi va sotsiologi Yu.Xabermas, amerikalik olimlar M.Uorren va M.Xovard kabilar yangi davr fuqarolik jamiyatiga oid nazariyalarni ishlab chiqdilar.

Hozirgi davr G'arb nazariyotchilari fuqarolik jamiyati modelini quyidagi institutlar va sohalardan iborat ekanligini e'tirof etishadi: birinchidan, plyuralizm: ijtimoiy sohalarda, jamiyatda, undagi nodavlat notijorat tashkilotlarda (NNT), turli ijtimoiy qatlam va guruhlarda plyuralizmning mavjudligi; ikkinchidan, hayot erkinligi: turli ijtimoiy-madaniy va kommunikatsiya sohasidagi institutlar; uchinchidan, shaxsiy hayot daxlsizligi: shaxsning rivojlanish shart-sharoitlarining mavjudligi. Mazkur omillar hamda institutlarning birgalikdagi va uyg'unlikdagi o'zaro ta'siri, bir-birlarini taqozo etishi fuqarolik jamiyati yashayotganligini anglatadi.<sup>11</sup>

Tadqiqot ishining "**Fuqarolik jamiyati institutlari va ularning evolyutsiyasi**" deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi paragrafida "*Siyosiy partiyalar va ularni fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlantirish masalalari*" tahlil etilgan.

"Partiyaviy tizim" tushunchasi, bu – muayyan son va o'lchovlar (saylovchilar hajmi, ichki tizimlar turlari va boshqa me'yorlar), shuningdek, bir-biri bilan hamkorlik qila olish imkoniyatlariga ega bo'lgan mustaqil subyekt (partiya)lar majmuasidan iborat siyosiy kenglik demakdir. Hozirgi davrda partiyaviy tizimlarning to'rtta turi mavjud: bir partiyaviylik, bipartizm, "ikki yarim partiyaviylik" va ko'p partiyaviylik<sup>12</sup>.

Partiyaviy tizimlar tipologiyasi me'yorlaridan biri, bu – partiyalar miqdorining qancha bo'lishi bilan o'lchanishidir. Bir partiyaviylik tizim avtoritar va totalitar jamiyatlar uchun xosdir. Bunday rejimda partiya butun siyosiy hokimiyatni o'z tasarrufiga oladi, shuningdek, u jamiyatga o'z tazyiqini o'tkazishga intiladi<sup>13</sup>.

<sup>9</sup> Утилитаризм – лат. «фойда»; XIX аср бошларида фойда ёки наф кўриш - ахлоқ асоси ғоясини илгари сурган этикадаги йўналишлардан бири.

<sup>10</sup> История политических и правовых учений. –М.: НОРМА,2003. –С. 250-251.

<sup>11</sup> Коэн Дж. Л., Арато Э.Гражданское общество и политическая теория. Пер. с англ. –М.: Весь Мир,2003. –С. 458.

<sup>12</sup> Sartori G. Parties and Party Systems. A Framework for Analysis. Vol.1. –N.Y., 1976. –P. 125.

<sup>13</sup> Основы политологии. Под. ред. В.П.Пугачева. –М.: МГУ,1992. –С. 137-138.

Albatta, u yoki bu partiyaviy tizimning samaradorligini baholovchi mezon hali yaratilmagan. Ayni paytda, partiyaviy tuzilmalarning samaradorligini belgilovchi umumiy mezonlarga: bu partiyalar tomonidan aholining talab va ehtiyojlariga xassoslik bilan yondashish, partiyalar ishtirokida fuqarolarning o‘ta muhim manfaatlari yuzasidan qarorlar qabul qilish, hukumat olib borayotgan siyosatga amaliy tanqidiy tuzatishlar kiritish, siyosiy elita faoliyatini demokratik nazorat qilishni amalga oshirish kabi ijtimoiy-siyosiy hayotda an’anaviy tus olgan partiyaviy qadriyatlarni misol keltirish mumkin.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida “*O‘zini o‘zi boshqarish organlari – fuqarolik jamiyati asosi*” mavzui ochib berilgan. O‘zini o‘zi boshqarish organlari bir necha asrlar ilgari davlatning quyi mahalliy boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi siyosiy tashkilotdan - XX asrga kelib, fuqarolik jamiyati institutiga aylanishigacha bo‘lgan katta tarixiy rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. G‘arb siyosatshunoslarining fikricha, “o‘zini o‘zi boshqarish” tushunchasi davlatga nisbatan fuqarolar jamoalari mustaqilligining shakllanishi bilan bog‘liqdir.

XX asrning 70-yillaridan boshlab, AQSH va Yevropada “munitsipal<sup>14</sup> boshqaruv” tushunchasi mazmunan o‘zgarib bordi. Rivojlangan ilg‘or mamlakatlarda munitsipal organlarni shakllantirish usullari ham rivojlanib bordi. Ilg‘or xorijiy mamlakatlardagi o‘zini o‘zi boshqarish tizimi bir necha yuz yilliklarda shakllanib, XX asrga kelib, u demokratik xarakter kasb eta boshladi. Rivojlangan mamlakatlardagi o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saylovlar yo‘li bilan shakllantirish, ular faoliyatini moliyalashtirish, fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarishda, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki, mazkur organlarni aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashdagi o‘rni yuksak maqomga ko‘tarildi.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida “*Nodavlat notijorat tashkilotlar – fuqarolik jamiyatining asosiy instituti*” sifatidagi o‘rni ochib berilgan. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi nodavlat notijorat tashkilotlarning (NNT) paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan bog‘liq holda kechdi. NNT uyushib va ko‘payib borgani sari fuqarolik jamiyati ham takomillashib bordi. Fuqarolik jamiyati tuzilmasida NNT asosiy institut sifatida namoyon bo‘ldi. Chunki, jamiyat ko‘plab ijtimoiy qatlamlar va guruhlardan iborat fuqaroviy birlik bo‘lgani uchun ularning har biri jamiyatni tashkil etishi va yashashi uchun muayyan NNT tuzishga zarurat sezdi, NNT vositasida o‘z manfaatlarini ifodalash va qondirish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT)ning maqsadi ijtimoiy manfaatlarni ifodalash va himoyalashdan iborat. Bu tushuncha Jahon banki tomonidan ishlab chiqilib, u rivojlanish bo‘yicha hamkorlik sohasida undan keng foydalaniladi. Jahon bankining 14.70-sonli operativ direktivasida nodavlat tashkilotga: “Aholining kambag‘al qatlamlariga yordamlashish, ularning qiyinchiliklarini yengillashtirish, atrof-muhitni himoya qilish, asosiy ijtimoiy xizmatlarni ta‘minlash, jamoalar rivojlanishini rag‘batlantirishga qaratilgan faoliyat olib boruvchi jamoatchilik tashkilotlaridir”, deb ta‘rif berilgan. Keng ma‘noda, bunday nom bilan har qanday notijorat (daromad olishni maqsad qilib qo‘ymagan), hukumatdan mustaqil bo‘lgan tashkilot nomlanadi. Jahon bankining belgilashicha, nodavlat tashkilotlari – bu “tashkilotning ijtimoiy qadriyatlariga asoslangan, to‘la yoki

---

<sup>14</sup>Munitsipalitet [nem. municipalitat <lot. municipium o‘zini o‘zi boshqaruvchi jamoa.]-1) bir qancha mamlakatlarda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi, shuningdek, ular joylashgan binoning nomi; 2) ba’zi davlatlarda quyi ma’muriy-hududiy birlik.

qisman xayriyalar hisobiga xatti-harakat qiladigan, jamoatchilik asosida ishlaydigan” tashkilotdir; “altruizm<sup>15</sup> va ixtiyoriylik ularning asosiy prinsipi bo‘lib qoladi”.

NNTning asosiy funksiyasi yangi ijtimoiy-siyosiy tuzilmalarni modellashtirish, ijtimoiy aloqalarning yangi noan’anaviy shakllarini izlash va sinovlardan o‘tkazish hisoblanadi. Ixtiyoriy birlashmalar ijtimoiy va o‘z faoliyatini o‘zi uyushtirishga moslashganliklari uchun ular ijtimoiy eksperimentlar o‘tkazishga, aholi ijtimoiy faolligining o‘zini o‘zi boshqarishiga oid shakllarini izlash va amalga oshirishga moyil bo‘ladi<sup>16</sup>.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi”** deb nomlangan uchinchi bobining birinchi paragrafida *“O‘zbekistonda mustaqillik arafasi va dastlabki davrida yangi jamiyatga o‘tish masalasining qo‘yilishi”* ga oid tahlillar amalga oshirilgan.

Sho‘rolar ittifoqi davrida KPSS ittifoqdosh respublikalardagi kompartiyalarni mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishning asosiy vositasiga aylantirgan edi. SSSR konstitutsiyasining 6-moddasida KPSSning: “sovet jamiyatining yadrosi va uni yo‘naltirib turuvchi” kuch ekanligi qonunlashtirilganligiga e‘tibor berilsa, partiyaning totalitar jamiyatni zo‘rluk va zulm vositasida bir maromda ishlashini ta‘minlashga qaratilgan asosiy siyosiy hokimiyat ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi<sup>17</sup>.

XX asrning 80-yillari oxiridan boshlab, respublika rahbariyati O‘zbekistonning mustaqil davlat bo‘lishi uchun harakatni boshlagan edi. Oliy Kengash 1990-yil 21-iyulda Mustaqillik Deklaratsiyasini qabul qildi. Mazkur Deklaratsiya respublika davlat va milliy mustaqilligi o‘rnatilishi jarayoni uchun muhim ahamiyat kasb etdi. 1991-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi e‘lon qilindi. Shu kuni Oliy Kengash “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonoti”ni e‘lon qildi. Unda quyidagi so‘zlar yozilgan edi: “O‘zbekiston Respublikasining hududi uning tarkibiga kiradigan Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududi bilan birgalikda bo‘linmas va daxlsizdir”<sup>18</sup>.

Shu davrdayoq O‘zbekiston rahbariyati va xalqi mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish yo‘lini tutdi. 1991-yil 15-fevralda Oliy Kengash “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi. Bu fuqarolik jamiyati sari tashlangan birinchi qadam edi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida *“Mustaqillik davrida fuqarolik jamiyatini shakllantirish muammolari”* tahlil etilgan. 1995-yil 23-fevralda mustaqil O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov bu haqda quyidagicha bayonot bergan edi: “Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi – bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo‘lidan og‘ishmay, izchil va qat’iyat bilan borishdir”<sup>19</sup>.

<sup>15</sup>Altruizm – [fr. altruisme < lat. alter boshqa, o‘zga] – boshqalarning manfaatlarini qondirishda beg‘araz hamxo‘rlik qilish, boshqalar manfaatlari uchun o‘z manfaatlaridan kechish (xudbinlikning aksi).

<sup>16</sup> Байтин М.И. Понятие и классификация функций государства. –М.: Просвещение,1999. –С. 352.

<sup>17</sup> Крючков Г.К. Политический авангард общества: его место и роль в перестройке. //Страницы истории советского общества: Факты, проблемы, люди. –М.: Политиздат,1989. –С. 408-409.

<sup>18</sup> Конституционное право Республики Узбекистан: (Сб. нормат. актов). Т.1./Сост. и вступ. ст. А.Х.Саидов. – Т.: Шарк, 1995. –С. 95.

<sup>19</sup>Каримов.И. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишидир. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –Б. 34.

XX asrning 90-yillarida O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish sohasidagi islohotlarning ijobiy natijaga erishmaganligining qator sabablari mavjud edi. Birinchidan, mamlakat rahbari tomonidan demokratik jamiyat qurishning besh tamoyilidan biri – “Davlat – bosh islohotchi” prinsipining e‘lon qilinishi natijasida ijroiya hokimiyatini kuchaytirishga zo‘r berildi. Ikkinchidan, mamlakatda hali huquqiy davlatning unsurlari shakllanmagan edi. Hokimiyatning uchga bo‘linish prinsipi buzilgan holda ijroiya hokimiyati qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlari faoliyatini nazorat qilar edi. Bu holat, birinchidan, huquqiy davlatning rivojlanishiga to‘siq bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga yo‘l bermas edi.

1995-2015-yillarda mamlakatda bozor munosabatlariga o‘tishning mashaqqatlari, ayniqsa, mulk munosabatlarining vujudga kelishi, o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlash, xo‘jalik yuritishning yangi usullari vujudga kelishi bilan butunlay yangi tipdagi davlat hokimiyati organlariga ehtiyoj sezilgan edi. Birinchi Prezident I.Karimov tomonidan O‘zbekistonning davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o‘zagi sifatida beshta asosiy prinsip ishlab chiqildi<sup>20</sup>. Mazkur prinsiplar mamlakatda bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari kirib kelmagani, davlat boshqaruv tizimi demokratlashmagani, avtoritar boshqaruv usullariga zo‘r berilgani uchun hayotda o‘z ifodasini topa olmadi.

Bu davrda “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” shiori e‘lon qilinib, unga binoan, islohotlarning o‘tgan asrning 90-yillari oxiridan boshlangan bosqichida davlat organlarining aksariyat vakolatlarini siyosiy partiyalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolarning vakillik organlari, shuningdek, jamoat tashkilotlariga berish, bu bilan fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishga doir islohotlarni chuqurlashtirish yo‘nalishlari belgilandi. Yaqin istiqbolda: hukumat va davlat organlari faoliyati ustidan fuqarolar jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish, fuqarolar erkinligini ta‘minlash, ular faolligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, hukumat va davlat organlarining xalq oldida doimiy mas‘ullik burchini his etishi kabi bir qancha yo‘nalishlardagi vazifalar e‘lon qilindi.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafida “*Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish muammolari*”ga oid tahlillar amalga oshirilgan. Mustaqillikning ilk davrida ko‘ppartiyaviylik tizimi shakllandi. Bunda 1996-yil 25-dekabrda qabul qilingan “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonunning ahamiyati muhim bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 30-apreldagi “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni mamlakatimizdagi partiyalarning demokratik qadriyatlar talablari darajasida rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi.

Lekin, 2000-yillarning o‘rtalariga kelib ham, partiyalarning siyosiy demokratik institut sifatida o‘z vakolatlarini hayotda mustaqil amalga oshira olish qobiliyatlari shakllanmadi. Bu holat quyidagilar bilan izohlandi: siyosiy partiyalar millatimiz mentalitetiga endigina kirib kelganligi; sobiq bir partiyaviylik tizimining asoratlari hali ham o‘zini namoyon etib turganligi; eski tuzumdan meros bo‘lib qolgan loqaydlik, boqimandalik va mutelik ruhiyati hamon ba‘zi partiya rahbarlari va xodimlari faoliyatida saqlanib kelayotganidandir.

Shuningdek, 1995-2015-yillar mobaynida ba‘zi partiyalarda nafaqat a‘zolar yoki boshlang‘ich tashkilotlar rasmiylashmagan, balki ko‘pchilik tuman va shaharlarda

<sup>20</sup>Каримов И. Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли.//Биздан озод ва обод Ватан қолсин, II том. –Т.:Ўзбекистон, 1994. –Б. 28-29.



ularning mahalliy partiya tashkilotlarining faoliyati umuman sezilmadi. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, mavjud partiyalarning joylardagi mahalliy yetakchilari partiyaviy omma tomonidan saylanmasdan, ko‘pincha, yuqori partiya organlari tomonidan ijroiya hokimiyat bilan kelishgan holda tayinlanar edi. Shuningdek, joylarda partiya a‘zolarining mavjud emasligi yoki partiyaga a‘zolikning o‘ta rasmiyligi natijasida hali partiyaviy jamoa nazoratini o‘zida his etmagan ayrim partiya rahbarlarining o‘zibo‘larchilik kayfiyatiga moslashib qolganligi oqibatida quyi tashkilotlarning shakllanishi qiyin kechdi.

Mustaqillik davrida O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) faoliyatini muvofiqlashtirishga oid O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi (1991-yil fevral, 1997-yil aprelda qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan), “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi (1992-yil iyul), “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi (1996-yil dekabr), “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” gi yangi tahrirdagi (1998-yil may), “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida” gi yangi tahrirdagi (1999-yil aprel), “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi (1999-yil aprel) qonunlari qabul qilindi.

Shuningdek, NNTni fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi maqomini ta‘minlash maqsadida, Oliy Majlis tomonidan 2003-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy jamg‘armalar to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. 2007-yil 3-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni bilan NNTni qo‘llab-quvvatlash va ularning erkin hamda mustaqil faoliyatining mavjud qonunchilik va davlat organlari tomonidan kafolatlanishi belgilab qo‘yildi.

Umuman olganda, mamlakatda 1992-2015-yillarda NNTning ayrim huquqiy asoslari shakllantirildi. Lekin, hayotda (de-fakto) ular xalqaro standartlar talablari darajasiga ko‘tarila olmay, davlat hokimiyati organlari vazifasini bajaruvchi tashkilotlar sifatida faoliyat olib bordi.

O‘zini o‘zi boshqarish organlarining xalqaro standartlar va xorijiy tajribalarga xos huquqiy asoslari 1993-2015-yillar ichida shakllandi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining XXI bobi 127-moddasida ushbu organlar quyidagicha tavsiflandi: “Shaharchalar, qishloqlar va ovullarda, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular raisni saylaydi”<sup>21</sup>. Ularda tarixiy va an‘anaviy huquqiy maqomlar ham e‘tiborga olindi. Bu davrda 10 462 ta o‘zini o‘zi boshqarish organlari tashkil etilib, ulardan 8142 tasi mahalla fuqarolar yig‘inlari edi<sup>22</sup>.

Ularning 1955 tasi tadbirkorlik va fermerlikni rivojlantirish, 1268 tasi sportni rivojlantirish, 839 tasi siyosiy partiyalar tashkilotlari, 830 tasi demokratik institutlar, 616 tasi yoshlar tarbiyasi, 613 tasi nogironlarning qonuniy manfaatlarini va huquqlarini himoya qilish, 584 tasi kasaba uyushmalari, 440 tasi mehnat faxriylarining qonuniy manfaatlarini va huquqlarini himoya qilish, 429 tasi madaniy-tarixiy va ma‘rifiy rivojlanish, 389 tasi favqulodda holatlarga qarshi kurashish, 314 tasi ayollar faolligini oshirish, 211 tasi

<sup>21</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (Янги таҳрири). – Тошкент: «Yuridik adabiyotlar nashriyoti», 2023. – Б.90.

<sup>22</sup> Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг жорий архиви.// Адлия вазирлигининг ННТ фаолиятига доир маълумотлари (2022 йилнинг 1 январь ҳолати).-Б-4.

sogʻliqni saqlash, 200 tasi taʼlim berish va ilmiy-tadqiqot markazlari, 174 tasi xalq hunarmandchiligini rivojlantirish, 143 tasi milliy-madaniy markazlar, 103 tasi ekologiya va atrof-muhitni himoya qilish, 66 tasi doʻstlik jamiyatlari, 31 tasi jurnalistika va OAVni rivojlantirish sohalarida faoliyat koʻrsata boshladi. Shuningdek, mamlakatda 29 ta xorijiy NNT vakolatxonalari va filiallari faoliyat yuritdi.

1999-yil 14-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasining “Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari toʻgʻrisida”gi Qonunida (avvalgi - 1993-yil 2-sentyabrda qabul qilingan “Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari toʻgʻrisida”gi Qonundan farqli ravishda) fuqarolar yigʻini qarorlarini kundalik hayotga tatbiq etish maqsadida ijro organi tarzida Fuqarolar yigʻini kengashi tuzilishi belgilandi. Avvalgi Qonunga binoan, mahalla faoliyatiga yigʻin rahbarlik qilardi. Yangi tashkil etilgan fuqarolar yigʻini kengashi instituti, endilikda, ijro organi vakolatlarini bajara boshladi.

Lekin, mustaqillikning dastlabki chorak asri davomida fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari mustaqil tashkilot sifatida oʻz huquq va erkinliklarini taʼminlay olmadi. Ular aksariyat hollarda tuman va shahar hokimliklari boshqaruvi asosida faoliyat yuritishga majbur boʻldi. Shu bilan birga, mahalla fuqarolar yigʻinlari faoliyatini moliyalashtirishni kafolatlash, ularning fuqarolarga turli ijtimoiy va maishiy xizmat koʻrsata olishlariga imkoniyatlar yaratish uchun soliq imtiyozlari bilan taʼminlash kabi huquqlar berilmadi.

Tadqiqot ishining **“Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishida tub burilish jarayoni”** deb nomlangan toʻrtinchi bobi birinchi paragrafida *“Oʻzbekistonda siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyati institutlari sifatida rivojlanish bosqichiga kirishi”* masalalari tahlil etilgan.

Siyosiy partiyalar nafaqat - fuqarolar siyosiy irodasi ifodachisi, balki davlat hokimiyati organlarini shaffoflik va adolat prinsiplari asosida shakllantiruvchi institut ekanligi tufayli ham jamiyatning muhim komponenti hisoblanadi. Shuning uchun ham Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-4947-sonli Farmonida mamlakatda siyosiy partiyalarni fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlantirish toʻgʻrisidagi bir qator vazifalar belgilandi. Xususan, “siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular oʻrtasida sogʻlom raqobat muhitini shakllantirish” vazifalarini bunga misol qilib olish mumkin<sup>23</sup>.

Siyosiy partiyalarning hozirgi davrdagi ahvolini Prezident Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikri ochiq-oydin ifodalaydi: “Bugun zamonning oʻzi siyosiy partiyalarning ish uslubini tubdan oʻzgartirish, ularning aholi, elektorat bilan muloqotini tizimli yoʻlga qoʻyishni talab etmoqda. Endi, “mudrab yotgan” siyosiy partiyalar uygʻonishi lozim. Ular balandparvoz gaplarni chetga surib, aniq amaliy ishlar bilan odamlarimiz, saylovchilar ishonchini qozonishi, ularning qalbidan joy olishi kerak”<sup>24</sup>.

<sup>23</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. [Электрон манба]: <http://press-service.uz/uz/news/5482/>.

<sup>24</sup>Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис палаталари, сиёсий партиялар ҳамда Ўзбекистон Экологик ҳаракати вакиллари билан видеоселектор йиғилишидаги маърузаси. [Электрон манба]: <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/781>. 13.07.2017 й.

Siyosiy partiyalar transformatsiyasining sekin kechishi sabablaridan biri – bu partiyalarni tuzish va ularni tashkiliy jihatdan rivojlantirish quyidan – siyosiy ishtirokchilar – fuqarolar umumiy irodasi asosida emas, balki mahalliy hokimiyat organlari rahbarlari tavsiyasi bilan partiya tashkilotlari kengashlari birinchi kotiblarini saylash amaliyotining paydo bo‘lganligidir<sup>25</sup>. 2019-yil 8-yanvarda mamlakatda O‘zbekiston Ekologik harakati bazasida beshinchi partiya – O‘zbekiston Ekologik partiyasi tashkil topdi.

Ma’lumki, 2019-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga bo‘lgan saylovlar natijalariga ko‘ra, Qonunchilik palatasidagi 150 ta deputatlik o‘rinlari quyidagicha taqsimlangan edi: O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi - 53 ta, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi - 36 ta, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi - 22 ta, O‘zbekiston “Adolat” SDP - 24 ta, O‘zbekiston Ekologik partiyasidan - 15 ta deputatlik o‘rinlari egallandi. Ko‘rinib, turibdiki, birorta partiya idora etuvchi partiya maqomiga (statusiga) erisha olmadi (Buning uchun partiya yoki partiyalar birlashgan blok 75+1 ta o‘rinni egallashi lozim)<sup>26</sup>. Biroq, siyosiy partiyalarda ko‘zga ko‘rinarli o‘zgarishlar sezilmadi. Aksariyat holatlarda ular faoliyatining asosiy qismini partiyalarga emas, balki NNTga xos bo‘lgan ishlar tashkil etdi.

Partiyalar yashash salohiyatining yo‘qolib borishi natijasida parlament quyi palatasidagi partiyalar fraksiyalari, mahalliy vakillik organlaridagi partiyaviy guruhlar o‘zlariga berilgan huquq va erkinliklardan foydalana olmadi. Barchaga ma’lumki, mahallalarda xotin-qizlar, “Nuroniy” va boshqa NNTning boshlang‘ich tashkilotlari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Lekin siyosiy partiyalar mahallalarda o‘z tayanchlari – boshlang‘ich tashkilotlarini tuza olmadi. Vaholanki, saylov okruglari mahallalardan iborat holda tuziladi. Partiyaviy faoliyat olib borishning xorijiy tajribalariga mensimay qarashlik, bu kabi tajribalar xo‘jako‘rsinga o‘tkazilishi natijasida partiyalar boshqaruv organlarida biqiq byurokatiya avj oldi. Buning oqibatida, jamiyki siyosiy partiyalar uyqu holatiga tushib qoldi.

To‘rtinchi bobning ikkinchi paragrafida *“O‘zini o‘zi boshqarish organlari – fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida isloh etish”* masalalari tahlil etilgan. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da “2018 -2020-yillarda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish va rivojlantirish Dasturini ishlab chiqish” vazifasi qo‘yildi va mazkur dasturda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakolatlarini amalga oshirish mexanizmlarini tartibga solish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari moddiy-texnika bazasini yaxshilash nazarda tutildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-fevraldagi “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4944-sonli Farmoni mamlakatda o‘zini o‘zi boshqarish organlarining fuqarolik jamiyati instituti darajasiga ko‘tarilishini ta’minlashning huquqiy asosi sifatida namoyon bo‘ldi. Farmonda: “fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish, fuqarolar yig‘inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqlarini ro‘yobga

<sup>25</sup> Киргизбаев М. Политические партии должны стать важным институтом нашего общества//Народное слово, 2019, 10 августа.

<sup>26</sup>Парламент сайловининг якуний тур натижалари эълон қилинди // <https://kun.uz/news/2020/01/06/parlament-saylovining-yakuniy-tur-natijalari-elon-qilindi?ysclid=lrvjgluzu6536339448>.

chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustah-kamlash maqsadi” strategik g’oya sifatida e’lon qilindi<sup>27</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni ijrosini amalga oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-noyabrda “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning dolzarb masalalarini hal etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari roli va faoliyati samaradorligini yanada oshirish to‘g‘risida”gi 940-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahri hamda tuman va shahar hokimliklarining fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan doimiy hamkorlik o‘rnatishi belgilandi<sup>28</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PF-209-sonli “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini amalga oshirish va takomillashtirish maqsadida mahalla institutiga oid 90 ta qonun va me’yoriy hujjatlar qabul qilindi, ulardan 50 dan ortig‘i takomillashtirildi. So‘nggi olti yil ichida 624 ta mahalla idorasi yangidan qurildi, 2 ming 265 tasi rekonstruksiya qilindi va ta’mirlandi, 102 ta tuman va shahar markazida “Mahalla markazi” majmualari barpo etildi, har bir fuqarolar yig‘inida “Keksalar maslahati” guruhlarini, 4 mingdan ziyod mahalla binolarida kutubxonalar tashkil qilindi. Mahallalarning boshqaruv xodimlari: mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan “mahalla yetiligi”ni tashkil qildi.<sup>29</sup> Mahallaning o‘zida 70 dan ortiq masala, jumladan, moddiy yordam va kreditlar hal etiladi. Tizim esa, to‘liq raqamlashtirildi. Shuningdek, mahalla raisining vakolatlari kengaydi.

Mahalla faollarining mas’ul tashkilotlar va profilaktika inspektorlari bilan hamkorligida 2017-2023-yillarda 90 mingga yaqin kam ta’minlangan oila ehtiyojmandlik darajasidan chiqarildi. Mahallalarda 18 mingdan ortiq xodim faoliyat ko‘rsatib kelayotgan bo‘lsa-da, ularning ishi samarali tashkil etilmaganligi, oilalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi holatlarning oldini olishga qaratilgan tizimning yo‘lga qo‘yilmaganligi ba’zi o‘rinlarda o‘zining salbiy oqibatlarini namoyon qila boshlagan edi<sup>30</sup>.

Shuni ta’kidlash lozimki, istiqbolda qonun chiqaruvchi hokimiyatning ham, ijro etuvchi hokimiyatning ham mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga kirishini, xalqimizning munosib hayot kechirishini ta’minlashga qaratilgan faoliyatining kelishilgan holda amalga oshirilishi o‘zining samarali natijasini beradi. Keyingi besh yil ichida yangilanayotgan Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish

<sup>27</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 февралдаги “Маҳалла институтини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4944-сонли Фармони. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. –2017.–6-сон.–69-модда.

<sup>28</sup>Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг долзарб масалаларини ҳал этишда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари роли ва фаолияти самарадорлигини янада ошириш тўғрисида”ги 940-сонли қарори (2017 йил 23 ноябрь) [Электрон манба]: <https://nrm.uz/contentf?doc=524135>. Мурожаат санаси: 2017 йил 25 ноябрь.

<sup>29</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 21.12.2023 й. ПФ-209-сонли “Маҳалла институтининг жамиятдаги ролин тубдан ошириш ва унинг аҳоли муаммоларини ҳал этишда биринчи бўғин сифатида ишлашини таъминlashga қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)), 2023 йил 25 декабрь.

<sup>30</sup>“Обод ва хавфсиз маҳалла” тамойили амалга оширилади. [Электрон манба]: <http://www.uzavtoyul.uz/cy/post/obod-va-xavfsiz-mahalla-tamoyili-amalga-oshiriladi.html>.

islohotlari ancha jonlandi, bu jarayon G'arb ekspertlari tomonidan munosib e'tirof etilmoqda.

To'rtinchi bobning uchinchi paragrafida *“Mamlakatda nodavlat nojorat tashkilotlarning fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishi”* masalalari tahlil etilgan. O'zbekistonda nodavlat nojorat tashkilotlari (NNT) fuqarolik jamiyatiga xos tarzda, asosan, 2017-yil 8-sentyabrdan boshlab rivojlana boshladi. 2016-yilda Sh.M.Mirziyoyevning mamlakat Prezidenti etib saylanishi, Prezident tomonidan *“Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak”* tamoyiliga asoslanib, islohotlarni rivojlantirish bosqichi nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatida yangicha mazmun va mohiyatini ochib berdi. NNTni taraqqiy ettirish dasturi Prezidentning PF-4947-sonli Farmonida mujassamlashdi. Mazkur Farmondan kelib chiqqan holda 2017-yil 8-sentyabrda *“O'zbekistonda Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi”*ning qabul qilinishi ijroiya hokimiyati tizimini huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati talablariga xos tarzda taraqqiy etishining huquqiy negizi sifatida namoyon bo'ldi.

Qolaversa, bugungi kunda ham respublikamizda barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish davom etmoqda. 2021-yil 4-martdagi *“2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”*<sup>31</sup>gi PF-6181-sonli Farmonda: *“NNTlar faoliyatining ochiqlik indeksi joriy qilinishi, yil yakunlari bo'yicha NNT larning hisobdorligini amalga oshirish, ularning ijtimoiy sheriklik faoliyatini olib borish sifati, ularga ajratilgan subsidiyalar, turli xil grantlar va sosial buyurtmalar natijasining samarasi o'laroq, asosiy faoliyatining darajalari asnosida ularning reytingi tuzib borilishi belgilangan”*. Prezident Sh.M.Mirziyoyev mamlakatda NNT fuqarolik jamiyati talablariga javob bera oladigan tizimini yaratish masalasiga to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlaydi: *“Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirayotgan islohotlarimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va roli beqiyos ekanini alohida ta'kidlash joiz. Ammo ana shunday muhim sa'y-harakatlarga qaramasdan, aholining muammolarini tizimli o'rganish, ularni aniq hal etish, ayniqsa, ijtimoiy sharoiti og'ir ayollarni qo'llab-quvvatlash, yoshlar va xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ularni ish bilan ta'minlash masalalarida bu tashkilotlarning ishtiroki yetarli darajada sezilmayapti. Ular faqat nomiga yig'ilishlar o'tkazish bilan mashg'ul bo'lib qolmoqda”*<sup>32</sup>.

Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish sohasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini chuqur tushunib yetish *“Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”* degan oliyjanob g'oyani izchillik bilan hayotga tatbiq etishdan iboratligini alohida ta'kidlash lozim<sup>33</sup>. Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining asosiy instituti hisoblangan NNTlar safi yanada kengayib, ular jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat olib bormoqda. Buni quyidagi fakt va raqamlardan ham bilib olish qiyin emas. O'tgan asrning 90-yillari boshlarida respublikamizda atigi 100 ga yaqin NNT faoliyat

<sup>31</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2021-2025 йилларда фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6181-сон Фармони.// <https://lex.uz/docs/5319756>.

<sup>32</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 22 декабрь 2017 й. [Электрон манба]: <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1371>.

<sup>33</sup> Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. //«Халқ сўзи» газетасининг 2017 йил 16 январдаги 11 (6507) сони.

ko'rsatgan bo'lsa, 2016-yilda 8190 ta NNT Adliya vazirligi ro'yxatidan o'tgan, 2022-yilga kelib esa, ular soni 12500 tani tashkil etgan. Shu bilan birga, NNT larning 130 mingdan ortiq boshlan-gich tashkiloti ham bor<sup>34</sup>.

“2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”ga binoan hududlarda nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ijtimoiy sheriklik loyihalari bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish ko'lamini kengaytirish, viloyatlardagi mahalliy vakillik organlari huzurida fuqarolik jamiyati institutlari va NNTni qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoat fondlarini tashkil etish kabi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bilan bog'liq amaliy o'zgarishlar rejalari muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Fuqarolik jamiyatini qurishning xorijiy tajribalari va bu sohaga doir xalqaro standartlari talablaridan ma'lumki, fuqarolik jamiyati sharoitida davlat hokimiyati organlari aholi manfaatlari va ehtiyojlari asosida faoliyat yurituvchi institut sifatida namoyon bo'ladi. Fuqarolik jamiyatining ana shu qadriyatlarini amalga oshirish maqsadida 2017-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon aholiga “davlat xizmatlarining sifati, tezkorligi, shaffofligi va foydalanish imkonini tubdan oshirish bo'yicha kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni, “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan ulug'vor g'oyani so'zsiz amalga oshiruvchi asosiy g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish” mexanizmini yaratib berdi. Aholiga davlat xizmati ko'rsatish tizimi samarasini oshirish, bu sohani fuqarolik jamiyati talablariga moslashtirish maqsadida, alohida davlat organi – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi<sup>35</sup>.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining holatida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda, fuqarolarning siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishda, ularning ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarini qondirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining faol ishtirok etishiga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligini qayd etish lozim. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi tashkil etildi<sup>36</sup>.

2018-2023-yillarda mazkur Farmonning ijrosini ta'minlash jarayonida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari huzurida NNTni va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlarini tashkil qilish vazifasi qo'yildi. Bu fondlar “uchinchi sektor”ni

<sup>34</sup>Якубов Ш. Давлат ва фуқаролик жамияти институтлари ҳамкорлигининг ҳуқуқий механизлари Монография. –Т.: «LESSON PRESS» нашриёти, 2018. – 205 б -Б. 25.

<sup>35</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳолига давлат хизматлари кўрсатишнинг миллий тизimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. 12 декабрь 2017 й. [Электрон манба]: <https://kun.uz/news/2017/12/13>.

<sup>36</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 майдаги “Мамлакатни демократик янгилаш жараёнида фуқаролик жамияти институтларининг роlinи tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni// Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.05.2018 й., 06/18/5430/1164-сон, 13.12.2018 й., 06/18/5597/2300-сон, 11.12.2019 й., 06/19/5892/4134-сон.

qo'llab-quvvatlash uchun mahalliy davlat byudjetidan yo'naltiriladigan mablag'larni adolat tamoyillari asosida ochiq-oshkora taqsimlashga xizmat qila boshladi<sup>37</sup>.

2018-yildan boshlab, mamlakatda NNT va diniy tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini tashkil etish va ular faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ular faoliyatini tartibga soluvchi bir qator qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi bilan birga, 15 ta yangi me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi. Xususan, 2018-yil 13-apreldan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini rivojlantirish sohasida davlat siyosatini amalga oshiradigan organ sifatida rasman e'tirof etildi<sup>38</sup>.

2023-yilga kelib esa, turli sohalarda 12500 ta NNT hamda 2200 dan ortiq diniy tashkilotlar va 2140 ta OAV faoliyat ko'rsata boshladi. Hozirgi davrgacha NNT faoliyatiga oid 300 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 2018-2023-yillarda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida quyidagi o'zgarishlar amalga oshirildi:

NNT larga adliya organlari bilan bog'liq barcha xizmat va aloqalarni elektron shaklda amalga oshirish imkonini beruvchi E-ngo.uz sayti sinov rejimida ishga tushirildi; mintaqaviy hududlarda "Nodavlat notijorat tashkilotlari uyleri" tashkil etildi;

NNTlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun undiriladigan davlat boji stavkalari umumiy tarzda 2 barobarga qisqartirildi;

NNTlar tomonidan ro'yxatdan o'tkazuvchi organga taqdim etiladigan hisobot shakli soddalashtirildi;

NNT larga xorijiy subyektlardan kelib tushgan pul mablag'lari va mol-mulkdan foydalanish bo'yicha (ro'yxatdan o'tkazuvchi organ bilan belgilangan tartibda kelishilgandan so'ng) barcha to'siqlar olib tashlandi;

diniy nodavlat tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi soddalashtirildi, ro'yxatdan o'tkazishda to'lanadigan davlat boji 5 martaga kamaytirildi;

NNTlarga xorijiy grant mablag'lari mazkur tashkilotlarning istalgan bank muassasalarida ochilgan maxsus hisob varaqlariga kelib tushishiga ruxsat berildi;

NNT sohasida barcha qonun va qonun osti hujjatlarni birlashtiruvchi "NNT to'g'risidagi Kodeks" loyihasi ishlab chiqildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda davlatning bosh islohotchilik faoliyati natijasida nodavlat notijorat tashkilotlarning demokratik tamoyillarga mos bo'lgan huquqiy asoslari shakllandi. Qisqa davr ichida mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishning poydevori – konstitutsiyaviy va huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Muhim islohotlar natijasida "uchinchi sektor" bilan davlat hamkorligi natijasida mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlarning mustaqil faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

## XULOSA

"Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy asoslarini rivojlantirish" mavzusi boyicha amalga oshirilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

<sup>37</sup>Саидов А.Х. Фуқаролик жамияти институтлари юксалиш босқичида. [Электрон манба]: <http://uza.uz/oz/society/fu-arolik-zhamiyati-institutlari-yuksalish-bos-ichida-08-05-2018>.

<sup>38</sup>Ўзбекистонда ННТлар ва диний ташкилотлар фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар. 23 ноябрь 2018 й. [Электрон манба]: <https://daryo.uz/k/2018/11/23>.



**Birinchidan.** Mamlakatda jamiyat va davlatni boshqarishda hamon milliy an'analarni ilg'or xorijiy tajribalar bilan boyitishga zarurat mavjud. Buning uchun quyidagi asoslar mavjud:

markaziy davlat organlari fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga doir huquqiy asoslariga xalqaro va rivojlangan mamlakatlarning fuqarolik jamiyatiga oid huquqiy me'yorlarini implementatsiya qilishni davom ettirishi lozim;

davlat ijroiya hokimiyati boshqaruvini fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga moslash maqsadida ushbu boshqaruv tizimi ijtimoiy menejment asosidagi boshqaruvga o'tishi lozim.

**Ikkinchidan.** Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi islohotlarini o'z boshidan kechirayotgan O'zbekiston fuqarolik jamiyatining iqtisodiy tayanchi va bu kabi jamiyat qurishning asosiy tashabbuskori – mulkdorlarning mustaqil ijtimoiy qatlam sifatida shakllanish jarayoni o'z nihoyasiga yetgani yo'q. Buni hal etishning quyidagi asoslari mavjud:

mulkdorlar qatlami hozirgi davrda o'z mulkining hajmi, mamlakatdagi miqyosi bo'yicha ham ozchilikni tashkil etadi (mulkdorlar rivojlangan mamlakatlarda aholining 35-30 foizini tashkil etadi), O'zbekistonda bu ko'rstkichni kamida 20-25 foizga oshirishga zarurat bor;

mamlakatdagi mulkdorlar qatlami kapital aylanmasi hajmi g'arb davlatlari o'rta mulkdorlar qatlami kapital aylanmasidan 50-60 marta kam. Ushbu ko'rstkichni ikki martaga ko'paytirish lozim.

**Uchinchidan.** Jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifodalashga harakat qilayotgan NNT hali ijtimoiy va moliyaviy jihatdan fuqarolik jamiyati instituti darajasiga ko'tarila olgani yo'q. Bu sohadagi muammolarni hal etishning quyidagi asoslari mavjud:

aholining o'z manfaatlarini NNT vositasida qondirish tajribasini oshirish maqsadida ularni huquqiy va siyosiy madaniyatini oshirish, davlat dasturini ishlab chiqish va uni joriy etish zarur;

NNTning ijroiya hokimiyat organlari ustidan jamoatchilik nazorati qila olishini ta'minlash maqsadida me'yoriy-huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish lozim;

aholining ba'zi qatlamlarida saqlanib kelayotgan paternalistik siyosiy madaniyatdan xalos bo'lish, demokratik siyosiy madaniyatni shakllantirish maqsadida siyosiy partiyalarni boshlang'ich tashkilotlar va aholi o'rtasidagi faoliyatini kuchaytirish lozim.

**To'rtinchidan.** Davlat hokimiyati idoralari, ayniqsa, mahalliy hokimiyat organlari faoliyati ustidan fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatchilik nazoratini kuchaytirish o'rnatish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati mavjud. Buni hal etishning quyidagi asoslari mavjud:

NNTlar salohiyatini oshirish, ularga mahalliy boshqaruv organlarining ba'zi vakolatlarini berish, uning huquqiy asoslarini ishlab chiqish lozim;

nodavlat ommaviy axborot vositalari sonini oshirish, jurnalistik surishtiruvini amalga oshirishga oid maxsus nizom ishlab chiqish, uni parlamentda tasdiqlash va amaliyotga joriy etish zarur.

**Beshinchidan.** Mamlakatdagi NNT boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun zamonaviy va xorijiy tajribalar asosida kadrlar tayyorlashga zarurat sezilmoqda. Bu masalani yechishning quyidagi asoslari mavjud:



mamlakat oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida maxsus fuqarolik jamiyati institutlari (NNT) sohasi uchun mutaxassislar tayyorlaydigan bakalavriat va magistratura yo'nalishlarini ochish;

NNT boshqaruv tizimi kadrlarini xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish tizimini tashkil etish, uning nizomini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish lozim;

NNTlar faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, ular faoliyatining avj olishiga ko'maklashuvchi ilmiy-amaliy, uslubiy va metodologik, informatsion-huquqiy bilimlar beruvchi maxsus materiallarni (tavsiyanomalar, qo'llanmalar, byulletenlar va b.) nashr etishni yo'lga qo'yish lozim.

**Oltinchidan.** Jamiyatning har uchala sektori - davlat, xususiy va nodavlat notijorat sektorlar hamkorligida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni maqsadli dasturlar, shartnomalar ishlab chiqib, hayotga tatbiq etish orqali hamda tegishli grantlardan foydalanish asosida hal qilish tajribalarini o'zlashtirish lozim. Ushbu masala yechimining quyidagi asoslari mavjud:

nodavlat tashkilotlarining xorijiy grantlarni qo'lga kiritishi, ularning o'z faoliyatlarini moliyalashtirish bo'yicha olib borayotgan izlanishlari haqidagi, xususan, fandraying, moliyalashtirish uchun zarur vositalarga ega bo'lishlari uchun huquqiy asoslar yaratish, davlat subsidiyalarini ajratish;

NNT o'rtasida tanlovlar natijasi ular ishlab chiqqan ijtimoiy rivojlanishga oid loyihalarni amalga oshirish moliyaviy asoslarini yaratish, loyihalarni amalga oshirish jarayonlarini ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikka doimiy tarzda yetkazib borish.

**Yettinchidan.** Siyosiy partiyalar markaziy va mahalliy organlari rahbarlarini qurultoy va konferensiyalarda faqat bitta nomzod ko'rsatish tajribasi yashab kelmoqda. Bu holat siyosiy partiyalar faoliyatini demokratik prinsiplarda kechishiga zarar keltirmoqda. Mazkur masalani hal etish uchun quyidagi asoslar mavjud:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy vakillik organlariga saylanadigan deputatlikka nomzodlar ko'rsatish tajribasidagi 4-5 nafar nomzod ko'rsatish tajribasini siyosiy partiyalar markaziy, viloyat, shahar va tuman kengashlari raislari saylash jarayonida qo'llash lozim;

siyosiy partiyalar markaziy, viloyat, shahar va tuman kengashlari raislari lavozimiga ko'rsatiladigan har bir nomzod konferensiya va qurultoyda o'z dasturini taqdim etishi, konferensiyadagi ko'pchilikning qo'llab-quvvatlashiga erishishi natijasi o'laroq saylanishi tajribasini o'rnatish lozim.

**Sakkizinchidan.** Davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali va konstruktiv muloqot mexanizmlarining yo'lga qo'yilishi sohasida muammolar mavjud. Ularni hal etishning quyidagi asoslari mavjud:

fuqarolik jamiyati institutlarini davlat hokimiyati boshqaruv organlariga samarali tarzda ta'sir etishlari uchun huquqiy asoslarni takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 72-moddasi qonunosti me'yoriy hujjatini qabul qilish maqsadga muvofiq;

NNT va davlat hokimiyati boshqaruv organlari o'zaro aloqalari va hamkorligini ta'minlash sohasini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Jamoatchilik palatasini tashkil etish, uning a'zolari yarmini NNT vakillaridan iborat bo'lishini ta'minlash.

**To‘qqizinchidan.** Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini baholashning milliy tizimini yaratish lozim. Buning uchun quyidagi asoslar mavjud:

NNT tomonidan ijtimoiy qatlamlar va aholi manfaatlarini qanchalik ifodalashlari, ularning boshqaruv samaradorligi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ishtiroklari mezonlarini ifodalab bera oladigan “NNT indikatorlari”ni ishlab chiqish:

NNTni davlat tomonidan moliyaviy ko‘maklashishda ularning “NNT indikatorlari” ko‘rsatgan natijalari ko‘rsatkichlarini asos qilib olish tajribasini o‘rnatish.

**O‘ninchidan.** O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish uchun NNT bilan mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni ijtimoiy sherikchilik shaklida, ya’ni “davlat – xususiy sherikchilik” asosida yo‘lga qo‘yish masalalari mavjud. Bu masalalarni hal etishning asoslari mavjud:

mahalliy hokimiyat organlari tizimida “davlat – xususiy sherikchilik” prinsipi asosida hokimlik boshqaruv vakolatlarining bir qismini NNTga berish;

mahalliy hokimiyat organlari tizimida autsorsing va kraudsorsing asosida aholiga xizmat ko‘rsatish turlarini joriy etish, unga NNTni jalb etish.

Amalga oshirilgan tadqiqot xulosalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalarni bildirish mumkin:

- davlatning fuqarolik jamiyati bilan samarali va konstruktiv muloqot mexanizmlarining yo‘lga qo‘yilishi, shuningdek, ularning o‘zaro aloqalari hamda munosabatlarini muvofiqlashtirib turuvchi qabul qilingan qonunlarni yanada takomillashtirish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 72-moddasi qonunosti me’yoriy hujjatini qabul qilish maqsadga muvofiq;

- fuqarolik jamiyatining eng asosiy prinsipi inson huquq va erkinliklarini ta’minlash ekanligidan kelib chiqib, yaqinda tashkil etilishi nazarda tutilgan Jamoatchilik palatasiga NNT tomonidan inson huquq va erkinliklarini himoya qilish jarayonini nazorat qilish vakolatlarini berish lozim;

- davlat hokimiyati idoralari, ayniqsa, NNTlarni mahalliy hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishni muvofiqlashtirishga oid me’yoriy-huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish lozim;

- nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini baholashda, ular tomonidan ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini qanchalik ifodalashlari mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish, ular faoliyatiga boshqaruv davlat organlari aralashuvlari darajasini aniqlab beradigan mezonlar va indikatorlar ishlab chiqish va ularni joriy etish lozim;

- siyosiy partiyalar markaziy va mahalliy organlari rahbarlarini qurultoy va konfrensiyalarda saylashda deputatlarni saylashdagi kabi muqobil bo‘lgan bitta partiyaviy mansabga bir nechta nomzod qo‘yish, ular o‘rtasida o‘z dasturlarini himoya qilishga oid bahs-munozaralar asosida saylanishining huquqiy asoslarini ishlab chiqish lozim (shu paytgacha bu kabi lavozim nomzodlarini hokimlar tavsiya etmoqda);

- NNTlar faoliyatiga oid me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, ular faoliyatining avj olishiga ko‘maklashuvchi ilmiy-amaliy, uslubiy va metodologik, informatsion-huquqiy bilimlar beruvchi maxsus materiallarni (tavsiyanomalar, qo‘llanmalar, byulletenlar va b.) nashr etishni yo‘lga qo‘yish;

- yetarli qonunchilik bazasi yaratilganligiga qaramay, siyosiy partiyalar, NNT va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasidagi

o‘zaro hamkorlikni ijtimoiy sherikchilik shaklida “davlat – xususiy sherikchilik” asosida yo‘lga qo‘yish, bu sheriklik amal qilishining huquqiy asoslarini takomillashtirish lozim;

- mamlakatda bandlik muammosini hal etishni nazarda tutgan holda, avvalo, yoshlarni va ayollarni ish bilan ta’minlashning real chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda bu borada band bo‘lmagan mehnat resurslarining migratsiyasi va eksporti bilan shug‘ullanuvchi NNTlarni tashkil etish, ularni moliyaviy, tashkiliy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

- jamiyatning har uchta sektori: davlat, xususiy va nodavlat notijorat sektorlar hamkorligida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni maqsadli dasturlar, shartnomalar ishlab chiqib, hayotga tatbiq etish orqali hamda tegishli loyihaviy platformalardan foydalanish asosida hal qilish xorijiy tajribalarni tadqiq etish, ularni va keng qo‘llashga muhim e’tibor berish;

- nodavlat tashkilotlarining xorijiy grantlarni qo‘lga kiritishi, ularning o‘z faoliyatini moliyalashtirish bo‘yicha olib borayotgan izlanishlari haqidagi, xususan, fandraying, tanlovlar, hamkorlikdagi loyihalar kabi faoliyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ommaviy media orqali keng jamoatchilikka targ‘ib etish zarurati mavjud.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/29.12.2022. Ss.21.02 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

---

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**МАШАРИПОВ ИКРАМЖОН БАТИРОВИЧ**

**РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ОСНОВ  
ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА**

**23.00.02 - Политические институты, процессы и технологии**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора (DSc) политических наук**

**Ташкент-2024**

**Тема диссертации доктора (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за B2018.4.DSc/Siyos24**

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).)

**Научный руководитель:**

**Киргизбаев Муқимжон**

доктор политических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Жураев Сайфиддин Ахматович**

доктор политических наук, профессор

**Журакулов Фурқат Норйигитович**

доктор политических наук, профессор

**Мирзаахмедов Камолиддин Мансур угли**

доктор политических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Академия государственного управления при Президенте Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc/03/29.12.2022/Ss.21.02 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном университете востоковедения (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 20.Тел.: (99871) 233-45-21, факс: (99871) 233-52-24; email: [sharq\\_ilmiy@mail.ru](mailto:sharq_ilmiy@mail.ru))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета востоковедения (зарегистрирована за \_\_\_\_). Адрес: 100070, г.Ташкент, ул. Амира Темура, 20. Тел: (99871) 233-45-21

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года.  
(протокол реестра рассылки № \_\_\_\_ от « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года).

**Д. Б. Сайфуллаев**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор.

**Д.И. Мадаминава**

Учёный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, доцент.

**Э.С.Султанова**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор политических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировом опыте за последние годы особое внимание уделяется обеспечению свобод и прав человека при формировании конституционно-правовых, социально-политических, информационно-коммуникативных основ гражданского общества. В частности, “при решении национальных и общечеловеческих проблем одним из актуальных задач сегодняшнего дня становятся обеспечение широкого участия гражданского общества, повышение его значения в институциональном, функциональном и стратегическом направлениях.”<sup>1</sup> Что касается главного условия построения гражданского общества, то определение места таких новых, формирующихся в условиях политической социализации населения и усиления социального прагматизма направлений, как Негосударственные некоммерческие организации (Nongovernmental organizations - «NGO»), в системе институтов гражданского общества, проблема внедрения в практику важного элемента демократического политического процесса – системно-институционального и организационно-технологического направлений межпартийной конкуренции – стала актуальной задачей, ждущей своего решения.

В научных исследованиях, осуществляемых по развитию институтов гражданского общества в условиях глобализации в мире, в экономической, социально-политической, а также правовой сферах, отдельное внимание уделяется политическим анализам, направленным на их роли в развитии социума. И хотя в данных исследованиях раскрыты процессы социально-политического развития негосударственных некоммерческих организаций, а также их участие в тенденциях социальной модернизации и экономической диверсификации, однако вопросы, направленные на предотвращение ими различных кризисных ситуаций, эффективное использование роли “идейного инкубатора” политических партий в процессе их трансформации ввиду повышения роли выборов в формировании демократического парламента и исполнительной власти, совершенствование правовых аспектов функций парламентского и партийного контроля, устранение угроз глобализации, а также научная оценка их доли в духовно-идеологическом развитии, не исследованы в достаточной степени.

В Узбекистане в обеспечении правовых аспектов процессов развития институтов гражданского общества ощутимо повышаются роль и ответственность органов и учреждений юстиции в вопросах повышения качества государственных услуг, предоставления в системном порядке общественности сведений о своей деятельности. В осуществлении единой государственной политики в сфере оказания государственных услуг и правовой защиты интеллектуального имущества возникает необходимость объективного использования возможностей системы, обеспечения соответствующей деятельности в данных сферах, а также формирования единого вертикального управления существующих административных структур. В настоящее время идея «Государственные органы должны служить народу, а не народ государственным органам»<sup>2</sup> стала основным принципом построения гражданского общества. Тенденции развития институтов гражданского общества неразрывно созвучны с процессами формирования фундамента

---

<sup>1</sup> Honoring Lester Salamon at the 2022 ISTR Conference Centre research civil society of University name Johns Hopkins (АҚШ). <https://ccss.jhu.edu>.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т., “O‘qituvchi” нашриёти, 2021. –Б. 27.

Нового Узбекистана. При этом стратегические задачи, стоящие перед страной: осуществление фундаментальных и комплексных исследований, вобравших такие факторы, как народное государство, свободное гражданское общество и укрепление демократических ценностей – остаются актуальными задачами, стоящими перед научным сообществом.

Данная диссертация в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», № УП-4944 от 3 февраля 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию института махалли», № УП-5430 от 4 мая 2018 года «О мерах по коренному повышению роли институтов гражданского общества в процессе демократического обновления страны», № УП-6181 от 4 марта 2021 года «Об утверждении Концепции развития гражданского общества в 2021 — 2025 годах», № УП-5938 от 18 февраля 2020 года «О мерах по оздоровлению социально-духовной атмосферы в обществе, дальнейшей поддержке института махалли, а также поднятию на новый уровень системы работы с семьями и женщинами», № УП-158 от 11 сентября 2023 года «О Стратегии «Узбекистан – 2030»» а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к этой области.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

